


2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasи bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 2345 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1068 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2186 ta (20,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 13119 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 13119 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,0 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,8 % savdo, 13,3 % sanoat, 10,2 % qurilish, 12,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 23,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 Yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	10933	13119	120,0	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1366	1641	120,1	12,5
Sanoat	1290	1745	135,3	13,3
Qurilish	1014	1337	131,9	10,2
Savdo	2885	3518	121,9	26,8
Tashish va saqlash	583	608	104,3	4,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	605	837	138,3	6,4
Axborot va aloqa	165	175	106,1	1,3
Sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	129	147	114,0	1,1
Boshqa turlari	2896	3111	107,4	23,8


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4007 ta), Sirdaryo (2048 ta), Sayhunobod (1062 ta) va Guliston (1006 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (300 ta), Sardoba (553 ta) hamda Oqoltin (578 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 12328 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2137 ta (21,0 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,6 % savdo, 13,5 % sanoat, 10,3 % qurilish, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,5 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3746 ta), Sirdaryo (1852 ta), Sayhunobod (1024 ta) Boyovut (955 ta) va Mirzaobod (932 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Shirin shahri (277 ta), Sardoba (533 ta) hamda Oqoltin (560 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 2345 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 83,6 %ga ko'pdir.

Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (607 ta), Sirdaryo (355 ta), Boyovut (191 ta) va Guliston (185 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (54 ta), Xovos (138 ta) hamda Sardoba (146 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (766 ta), sanoat (471 ta), qurilish (282 ta) va qishloq, o'r mon va baliq xo'jaligi (296 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (20 ta), axborot va aloqa (21 ta) hamda tashish va saqlash (44 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-noyabr holatiga 10238 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 2881 ta, oilaviy korxonalar - 151 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 6895 ta va boshqalar 311 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


**Mas'uliyati
cheklangan jamiyatি**




**Xususiy
korxona**



**Oilaviy
korxona**




**Unitar
korxona**



**Aksiyadorlik
jamiyatি**



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 149 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 ta ga yoki 40,6 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 149 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqорisi Sirdaryo (54 ta), Guliston shaxri (32 ta), Yangiyer shaxri (18 ta) va Sayhunobod (11 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Guliston (2 ta), Shirin shaxri (4 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (4 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 102 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faoliydarajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	149	100,0
Oqoltin tumani	3	2,0
Boyovut tumani	7	4,7
Sayhunobod tumani	11	7,4
Guliston tumani	2	1,3
Sardoba tumani	4	2,7
Mirzaobod tumani	8	5,4
Sirdaryo tumani	54	36,2
Xovos tumani	6	4,0
Guliston shahar	32	21,5
Shirin shahar	4	2,7
Yangiyer shahar	18	12,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 43 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Guliston shahar (10 ta yoki jamidagi ulushi 23,3 %), Sirdaryo tumani (7 ta yoki 16,3 %) va Yangiyer shahri (8 ta yoki 18,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital

ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (2 ta yoki 4,6 %), Mirzaobod tumani (2 ta yoki 4,6 %), Sardoba tumani (1 ta yoki 2,3 %) va Guliston tumani (1 ta yoki 2,3%) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Qozog'iston Respublikasi - 6 ta va Koreya Respublikasi - 3 ta, Tojikiston Respublikasi -7 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (24 ta), savdo (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (2 ta) hamda qurilish (3 ta), tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Kichik korxona va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 10189 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 25,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3237 tasi (31,8 %) Guliston shahri, 1590 tasi (15,6 %) Sirdaryo, 849 tasi (8,3 %) Sayhunobod hamda 772 tasi (7,6 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10189 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3274 tasi (32,1 %) - savdo, 1639 tasi (16,1 %) - sanoat, 1268 tasi (12,4 %) - qurilish, 1463 tasi (14,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 784 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 555 tasi (5,4 %) - tashish va saqlash, 159 tasi (1,6 %) – axborot va aloqa sohasi, 99 tasi (1,0 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 948 tasi (9,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 2234 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 96,1 % ga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (567 ta), Sirdaryo (347 ta), Boyovut (181 ta) va Guliston tumanlari (177 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (49 ta), Xovos (133 ta) hamda Oqoltin (141 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (766 ta), sanoatda (471 ta), qurilishda (282 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (294 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (20 ta), axborot va aloqada (21 ta) hamda tashish va saqlashda (44 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 168 tani tashkil etib, ulardan 151 tasi yoki 89,9 % faoliyat ko`rsatadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiyligi soni o`rtacha 37,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,3 % yoki 73 tasi sanoat, 16,6 % yoki 25 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,2 % yoki 23 tasi savdo, 13,2 % yoki 20 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,7 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarini soni, birlikda**


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	78	100,0
Oqoltin tumani	11	14,1
Boyovut tumani	5	6,4
Sayhunobod tumani	-	-
Guliston tumani	7	9,0
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	5	6,4
Sirdaryo tumani	18	23,1
Xovos tumani	-	-
Guliston shahar	22	28,2
Shirin shahar	1	1,3
Yangiyer shahar	9	11,5

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 78 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (22 ta), Sirdaryo (18 ta), Yangiyer shahri (9 ta) va Guliston tumani (7 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta) hamda Mirzaobod (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Sanoat




Savdo



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 64,1 % yoki 50 tasi sanoat, 7,7 % yoki 6 tasi savdo, 9,0 % yoki 7 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,9 % yoki 14 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi hamda 1,3 % yoki 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00**